

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



03.00.05 – “BOTANIKA” IXTISOSLIK FANIDAN  
KIRISH IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

Buxoro – 2023

## ANNOTASIYA

Respublikani, mustaqillikka erishgandan so'ng pedagog kadrlari tayorlash masasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. "Kadrlar tayorlash milliy dasturi" ishlab chiqqidi Uzakslat limming harcha bosqichlarida Respublikasini yanada rivojantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida talabalarда ma'naviy madaniyatni rivojantirish mekanizmlarini jismonan sog'hom, ruxan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan. Vatanza sodiq, qat'iy hayoni muqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojantirish jarayonida ularning ijtimoiy faoliyini oshirish asosida takomillashtirish muhim o'rinn egallaydi. Botanika fani o'simliklarning morfoloyiyasi, anatomiyası, sistematikası, tasnifi, fan tarixi va rivojlanish bosqichlari, isliqpoli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalaridan kelib chiqib, hududiy ekologik muammolarni yechishiga, o'simliklarning genofondini saqlash va muhofaza qilish, xalq xo'jaligida ishlaliadijan o'simliklarning istiqboli, ekologik omillarning o'simliklarga ta'siri kabi masalalarni qamraydi. Fanning maqsadi - botanika ixtisosligi bo'yicha tafabgorning nazariy va kasbiy tayyorgartlik darajasi, o'simliklarning morfologik va anatomiik tuzilishi, sharoitga moslashtish qonuniyatları, yer yuzida tarqalishi, sistematikasi, hayotiy shakllari, kelib chiqishi, taksonomic birliklar, taksonotariga bo'limishi, ekologik omillarning ta'siri, ularning muayyan sharoitga moslashtidagi biologik xususiyatlarning o'zgarishlari va ilmiy tadqiqotlarning zamoniaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko'rsatib berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojantirish bo'yicha Harkatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirilar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarning davlat hisobini, uardan foydalansh hajmlari hisobini va davlat kadasmini yuritish to'g'risida"gi, 2018 yil 19 dekabrdagi №1034-son "O'zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayorlash, nashr etish va yuritishni taskhil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 11 iyundagi 484-son "2019-2028 yillarda davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tashqilash to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 12 avgustdag'i PQ-4805 sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzuksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bosqqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dastur muayyan darajada xizmat qiladi.

Ushbu dastur kafedra yig'liishing 2023 yil "09" oktiyabrdagi

6 -sonli majlisida tasdiqlangan

Turuvchilar:   
B.f.f.d., (PhD), doct. H.O. Usanov  
  
B.f.n., doct. N.E. Rachidov  
Taqdirchilar:   
B.f.d., prof. S.B. Bo ricev

## Kirish

Mazkur dastur 03.00.05-Botanika ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga (PhD) kiruvchi talabgorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lif standartlari asosida tuzilgan. Dastur to'rt qismidan iborat. Birinchi qism o'simliklarning morfologiyasi va anatomiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda o'simlik hujayrasining tuzilishi, to'qimalar (asosiy, hosil qiluvchi, qoplovchi, mexanik, o'tkazuvchi, ajratuvchi), o'simliklarning vegetativ organlari (ildiz, poya, barg) ning tashqi tuzilishi, ichki tuzilishi, generativ organlari (gul, meva, urug') ning tuzilishi va ahamiyati, o'simliklarning jinsiy, jinssiz va vegetativ ko'payishi kabi mavzularni qamrab olgan.

Ikkinci qismi tuban o'simliklarga bag'ishlangan bo'lib, unda ko'k-yashil, yashil, qizil, tillarang, sariq-yashil, diatom, qo'ng'ir suvo'tlar, zamburug'lar va lishayniklarning tuzilishi, tarqalishi, ko'payishi, ahamiyati va sistematikasi kabi mavzularni qamrab olgan.

Uchinchi qismi yuksak o'simliklar sistematikasiga bag'ishlangan bo'lib, unda sporali yuksak o'simliklar (riniyatoifa, yo'sintoifa, plauntoifa, qirqbo'g'imtoifa, qirqulloqtoifa), ochiq urug'lilar (qarag'aytoifa, ginkgosimonlar, qarag'aysimonlar) va gulli o'simliklar (ayiqtovonkabilar, chinnigulkabilar, ra'nokabilar, yalpizkabilar, qoqio'tkabilar, lolakabilar, palmakabilar) ning sistematik tahlili, tarqalishi, areallari, kelib chiqishi, ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidaga mavzular keltirilgan.

To'rtinchi qism o'simliklarning geobotanikasiga bag'ishlangan bo'lib, unda fitotsenozning shakllanishi, fitotsenozning tuzilishi, fitotsenozdagi o'simliklarning munosabatlari, o'simliklarning areallari, transbiotik va transbiotik o'zaro munosabati, assotsiatsiya va formatsiyalarning tuzilishi kabi mavzular keltirilgan.

### Botanika fanining maqsad va vazifalari:

Fanning maqsadi - o'simliklarning tuzilishi va atrof-muhit omillariga moslashishi, o'simliklarning dunyo bo'yicha tarqalishi, taksonomiysi, hayotiy shakllari, kelib chiqishi, taksonomik birliklar, taksonlarga bo'linish qonuniyatlarini o'rganish talabalarni prokariot va eukariot organizmlar va evolyusion rivojlanish natijasida kelib chiqqan tuban o'simlik guruhlari bilan tanishtirish (suvo'tlar, zamburug'lar va lishayniklar) O'simliklar organizmini, uning makro va mikro tuzilishini, moslashuvchan xususiyatlarini, ontogenezdag'i o'zgarishlar, ko'payish usullari, sistematik tasnifi o'simliklarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ta'lif berish, ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - Botanika fanining ilmiy-nazariy asoslarini; ulardan foydalanish usullarini; zamonaivy tadqiqot metodlarini, mikrotexnika bilan ishlash; ilmiy gerbariylardan foydalanishni; olingan natijalarni tahlil qilishni zamonaivy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatishdan iborat.

### 03.00.05- "Botanika" ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturining asosiy mazmuni

**O'simlik hujayrasining tuzilishi va rivojlanish bosqichlari.** Botanika fanining ob'ekti va predmeti. Botanika fanining rivojlanishi tarixi va uning metodlari. Botanika fanining vazifalari. Botanika fanining boshqa fanlar ichidagi mavqeい. O'simlik hujayrasining tuzilishi. Ularning shakllari va o'lchamlari. Parenxima va prozenxima hujayralari. Hujayra qobig'i. Sitoplazmatik membrana (plazmalemma). Sitoplazma (protoplazma). Protoplast. Organoidlar. O'simlik hujayrasining hayvon hujayrasidan farq qiluvchi asosiy belgilari. Hujayra vakuolasining tarkibiy qismi. O'simlik hujayrasi po'stining tuzilishi, kimyoiy tarkibi va biologik ahamiyati. Sekret va sutsimon moddalarning hujayra tarkibidagi ahamiyati. Hujayraning rivojlanish bosqichlari. Hujayra po'stining tuzilishi, kimyoiy tarkibi va biologik ahamiyati. O'simlik hujayrasi tarkibidagi organoidlarning xossalari. Hujayraning bo'linishi: amitoz, mitoz va moyoz

### O'simlik to'qimaları:

To'qima, uning ta'rifi va tasnifi. Hosil qiluvchi to'qima - meristema. Uchki, yon, bo'g'im oralig'i meristemalari. Initsial hujayralar va ularning faoliyati. Birlamchi va ikkilamchi meristema to'qimalar (prokambiy, peritsikl, kambiy, fellogen). Qoplovchi to'qima. Uning ta'rifi, xillari va vazifalari. Mexanik to'qima. Mexanik to'qimalarning xillari va ularning funksiyalari. Kollenxima. Sklerenxima. Lub tolalari. Yog'ochlik tolalari. O'tkazuvchi to'qimalar. Umumiy tavsi. O'tkazuvchi to'qima xillari va ularning funksiyalari. Ksilema va floema. O'tkazuvchi naylar (traxeyalar), ularning tuzilishi, joylashuvi va funksiyalari. Elaksimon (tursimon) naylar. ularning tuzilishi, joylashuvi va funksiyalari. Traxeidlar, ularning tuzilishi, xillari va rivojlanishi. Perforatsiyalar. Suv o'tkazgich elementlarning (nay va traxeidlarning) filogenetik rivojlanishi. O'tkazuvchi nay bog'lamlarning hosil bo'lishi. Asosiy (assimilyatsion, g'amlovchi) to'qimalar. Assimilyatsion to'qima. Uning o'simlik tanasida joylashuvi, tuzilishi va funksiyasi. Ajratuvchi to'qimalar va aerenxima. Ajralib chiqadigan modda guruhlari: esfir moylari, fitonsidlar, kislotalar, sut shirasi, terpenlar, polisaxaridlar va boshqalar. Aerenxima - havo o'tkazuvchi to'qimalar va ularning ahamiyati.

### O'simliklarning vegetativ organlari. Ildizning tuzilishi

Ildizning birlamchi morfo-anatomik tuzilishi. Ildiz apeksi va qinchasining tuzilishi. Ildiz epidermasi va gipodermasi. Ildiz po'stlog'i va endodermaning tuzilishi. Ildizda peritsiklning va o'tkazuvchi to'qimalarning markaziy o'q atrofida

joylashuvi. Yon va qo'shimcha ildizlarning shakllanishi. Ildizning ikkilamchi yo'g'onlashuvi. Ildizning mikroorganizmlar bilan umumiyojamoani shakllantirishi.

### **Novdaning tuzilishi. Poyaning tuzilishi**

Novda apeksi. Novdaning boshlang'ich strukturaviy tuzilishi, dastlabki o'tkazuvchi tizimning shakllanishi. Kurtak xillari va ularning novdada joylashuv qonuniyatlar. Novdada barglarning joylashishi. Shoxlanish turlari. Novda modifikatsiyasi. Poyaning morfologik va anatomik tuzilishi.

Poya. Poyaning umumiy tavsifi va ta'rifi. Poyaning asosiy funksiyasi. Poyaning morfologik va anatomik tuzilishi. Poyaning birlamchi va ikkilamchi anatomik tuzilishi. Yo'g'onlashuv jarayoniga meristemalarining biologik ahamiyati. Yillik halqalar. Ko'p yillik o'simliklar poyasining himoyalanishida peridermaning ahamiyati. Poyaning birlamchi yo'g'onlashuvi va o'sishi. Kambiyning faoliyati va ikkilamchi yo'g'onlashuvga o'tish. Yog'ochlik (ksilema)ning tuzilishi. Uning tarkibiga kiruvchi elementlar. Yillik halqalar. Yog'ochlik tuzilishidagi oddiylik va takomillashgan belgilari. Po'stloqning hosil bo'lishi va uning o'simlik hayotidagi ahamiyati. Bir pallali o'simlik poyasining tuzilishi. Ikki pallali o'simlik poyalarining tuzilishi.

### **Bargning vazifasi, morfologiyasi va anatomik tuzilishi.**

Barg. Bargning vazifasi, morfologiyasi va anatomik tuzilishi. Bargning mezofili, epidermasi, o'tkazuvchi tizimi. Bargning nafas olishi. Oddiy va murakkab barglar. Barglarning tomirlanishi. Barglarning uch kategoriyasi. Geterofiliya. Bargning kelib chiqishi va evolyusiyasi. Bargning rivojlanishi, kurtak ichi va tashkarisidagi fazalari. Bargning uchki, chekka, yuza qismi orqali o'sishi. Xazonrezgilik, uning mexanizmi va ahamiyati. Barg metamorfozi.

### **Gulning tuzilishi. To'pgullar. Changlanish va urug'lanish.**

Gul joylashuvi, tuzilishi, vazifasi. Gulda o'tkazuvchi tizimning ishslash mexanizmi. Gulqo'rg'on. Androtsey. Ginitsey. Changlanish - avtogamiya, kleystogamiya, dixogamiya, geterostiliya va boshqalar. Shiradon (nektaardon)ning strukturaviy tuzilishi. Urug'lanish. Murtakning rivojlanishi. Gul formulasi va diagrammasi. Gulli o'simliklar rivojlanishining umumiy sxemasi. Bir uqli, ikki uqli va ko'p uqli o'simliklar. Gulning kelib chiqishi va evolyusiyasidagi yo'naliishlar haqida ayrim gipotezalar. To'pgullarning morfologik belgilari, biologik ahamiyati. Oddiy va murakkab to'pgullar haqida tushuncha. Gullarning xilma-xilligi. Gulli o'simliklarda changlanish. Uning umumiy tavsifi, xillari. Hasharotlar yordamida changlanish, shamol va boshqa usullar yordamida changlanish. Urug'lanish. Qo'sh urug'lanish

### **Urug' va meva tuzilishi.**

Urug'. Urug'ning morfologik xillari. Bir urug'pallali va ikki urug'pallali o'simliklar urug'ning tuzilishi. Ularning murtak tuzilishidagi farqlari. Chala rivojlangan va reduksiyalangan murtak. Urug'ning zaxira moddalari. Urug'ning

morfologik xillari. Urug'ning xo'jalik ahamiyati. Tinim holatidagi urug'. Urug'ning unishi. Urug' sifati, sifatini baholash usullari va ularni undirish. Urug'pallalarning funksiyasi; yer ustki va yer ostki unish.

Meva. Uning ta'rifi. Mevaning hosil bo'lishi. Ho'l va quruq mevalar. Bir urug'li va ko'p urug'li mevalar. Chatnaydig'an va chatnamaydig'an mevalar. Apokarp, sinkarp, parakarp, lizikarp mevalar. To'pmevalar. Geterokarpiya va geterospermiya. Meva va urug'larning tarqalishi. Urug' va mevalarning inson hayotida tutgan o'rni.

### **Ko'k-yashil va qizil suvo'tlari bo'limi**

Suvo'tlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar, bo'limlari, prokariot, mezakariot va eukariot guruhları. Suvo'tlarning kelib chiqishi va evolyusion aloqalari. Tallomining morfologik jihatidan xilma - xilligi. Xrookoksimonlar - Chroococcophyceae va gormogonsimonlar - Hormogoniophyceae sinflari, ularning asosiy vakillari. Tuzilishi va ko'payishi. Ko'k-yashil suvo'tlarning sistematik guruhları orasidagi evolyusion aloqalar. Tarqalishi va ahamiyati.

### **Yashil suvo'tlari bo'limi**

Tallomining tuzilishi va hujayrasidagi pigmentlari. Sinflarga bo'linish asoslari. Haqiqiy yashil yoki teng xivchinlilar - *Chlorophyceae*, *Isocontae* sinfi. Sinfning tartiblarga bo'linishi. Volvoksnamolar - *volvocales* tartibi va uning asosiy vakillari. Tuzilishi va ko'payishi. Xlorokoknamolar yoki protokokknamolar - *Chlorococcales*, *Protococcales* tartibi. Briopsisnamolar yoki sifonlilar - *Bryopsidales*, *Siphonales* tartibi. Kon'yugatlar yoki matashuvchilar - *Conjugatophyceae* sinfi. Xarasimonlar - *Charophyceae* sinfi. Tallomining tuzilishi va ko'payishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy vakillari.

### **Qo'ng'ir va diatom suvo'tlari bo'limi.**

Tallomi va hujayrasining tuzilishi. Hujayra qobig'inining o'ziga xos xususiyatlari. Vegetativ va jinsiy ko'payishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Sentriksimonlar - *Centrophyceae* sinfi va uning asosiy vakillari. Patsimonlar - *Pennatophyceae* sinfi va uning asosiy vakillari. Diatom suvo'tlarning tarqalishi va ahamiyati. Qo'ng'ir suvo'tlar bo'limi - phaeophytaio tallomining hamda hujayrasining tuzilishi. Pigmentlari. Monad tuzilishidagi hujayralarining o'ziga xos xususiyatlari. Hujayralaridagi zaxira moddalari. Ko'payishi. Sinflarga bo'linishi. Izogeneratsimonlar - *Isogeneratae*, geterogeneratsimonlar - *Heterogeneratae* va siklosporasimonlar - *Cyclosporeae* sinflari, ularning asosiy vakillari va rivojlanish sikli. Qo'ng'ir suvo'tlarning filogenezi, evolyusion aloqalari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

### **Sariq - yashil va tillarang suvo'tlari bo'limi.**

Sariq - yashil suvo'tlar yoki har xil xivchinlilar bo'limi -xanthophyta, heterocontae bo'limi. Tallomining tuzilishi va hujayrasidagi asosiy pigmentlar. Harakatchan stadiyasida xivchinlarining tuzilishi. Hujayrasi ustidagi qo'shimcha

hosilalari. Sinsflarga bo'linishi. Asosiy vakillari. Ahamiyati va tarqalishi. Pirofit suvo'tlarning hujayrasi va tallomining o'ziga xos tuzilishi. Kriptofitsimonlar - *cryptophyceae* va dinofitsimonlar - *dinophyceae* sinsflari. Asosiy vakillari, tuzilishi va ko'payishi.

## **Shilimshiqlar va zamburug'lar bo'limi.**

Shilimshiqlar tallomining tuzilishi. Ularning boshqa tuban O'simliklardan farqlari va o'xshashligi- sinflari: protosteliysimonlar - *Protosteliomycetes*, haqiqiy shilimshiqlar, yoki miksgasterosimonlar - *Myxogasteromycetes*, Plazmodioforasimonlar - *Plasmodiophoromycetes*, akraziyasimonlar, yoki hujayra shilimshiqlari - *Acrasiomycetes*. Ularning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari va vakillarining rivojlanish sikli. Zamburug'larning umumiyligi tavsiisi. Tanasining tuzilishi. Mitselivlarining shakl o'zegangan ko'rinishlari. Sinflarga bo'linishi.

#### Xitridiomitsetlar va Qomitsetlar sınıfı:

**Xitridiomitsetlar** - *Chytridiomycetes* sinfi. Ushbu sinfga mansub vakillarning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Muhim vakillarining rivojlanish sikli. Gifoxitriomitsetlar - *Hypochytridiomycetes* sinfi. Ushbu sinfga mansub vakillarning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Muhim vakillarining rivojlanish sikli. Oomitsetlar - *Oomycetes* sinfi. Sinfning tartiblarga bo'linishi. Saprolegniyanamolar tartibi. Peronosporanamolar tartibi va ularning muhim vakillari.

### Zigomitsetlar ve Askomitsetlar sınıfı

Zigomitsetlarning ko‘payishidagi o‘ziga xos xususiyatlari. Mukornamolar va entomoftoranamolar tartiblari va ularning muhim vakillari. *Ascomycetes* sinfi. Xaltachali zamburug‘larning umumiy tavfsisi. Xaltacha va askosporalarining rivojlanishi. Mevatanasining hosil bo‘lishi va xillari. Kenja sinflari. Gemiaskomitsetlar kenja sinfi va ularning asosiy vakillari.

Euaskomitsetlar kenja sinfi. Tartib va guruhlari. Plektomitsetlar tartiblar guruhi va ularning asosiy vakillari. Pirenomitsetlar guruhi va ularning muhim vakillari. Diskomitsetlar guruhi, mevatanalari va xaltachalarining o‘ziga xos tuzilishi. Muhim vakillari.

Bazidivali zamburug'lar sınıfı. Takomillashmagan zamburug'lar sınıfı

Bazidiyalı zamburug'li sinfi. Takomillashmagan zamburug'lar — *Basidiomycetes* sinfi. Bazidiomitsetlar yoki bazidiyalı zamburug'lar — *Basidiomycetes* sinfi. Ularning umumiy tavsifi. Bazidiya va bazidiyasporalarining hosil bo'lishi. Kenja sinflari. Bazidiyalı zamburug'larning kelib chiqishi. Takomillashmagan zamburug'lar - *Deuteromycetes* sinfi. Tallomining tuzilishi, ko'payishi va muhim yakillari.

Lishayniklar bo'limi

Lishayniklarning umumiy tavsisi. Lishayniklar tallomidagi suvo'tlar va zamburug'lar, ularning o'zaro munosabati, taksonomik guruhdari, morfologik xillari. Lishayniklar tallomining anatomik tuzilishi. Lishayniklarning ahamiyati.

## **Yuksak o'simliklar sistematikasi. Yo'sintoifalar (Bryophyta) bo'limi**

Yuksak o'simliklar sistematikasi fani predmeti. Yuksak o'simliklar sistematikasidagi taksonomik birliklar va kategoriyalar to'g'risida tushuncha. Xalqaro botanika nomenklaturasi qoidalari to'g'risida umumiyl tushuncha. O'zbekiston florasining taksonomik taxlili. O'zbekistonda sistematik olimlarning ilmiy ishlari. Yuksak o'simliklar bo'limalri. Yusintosifalar (bryophyta) bo'limi. Umumiy tavfsisi. Yusinlarning qadimgi ajdodlari. Sinsflarga bo'linishi. Jigarsimonlar, antotserotsimonlar marshansiyabilar, sfagnumsimonlar, ularning ko'payishi, ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va ekologiyasi.

## **Plauntoifalar (Lycopodiophyta) bo‘limi**

Umumiy tavsifi. Kelib chiqishi va rivojlangan davrlari. Hayotiy sikli. Mikrofililik. Teng sporali va har xil sporali plaunlar. Bo'limning ajdodlari (sinflari): plaunsimonlar va polushniksimonlar. Ularning umumiy tavsifi, tarqalishi va ekologiyasi

## **Qirqbo‘g‘imtoifalar (Equisetophyta) bo‘limi**

Umumiy tavsifi. Ularning gieniyasimonlar, sfenofilsimonlar, qirqbo'g'imsimonlar kabi sinflari, vakillari, kelib chiqishi, ekologiyasi va ahamiyati.

## Qirqquloqtoifa (Polypodiophyta) bo‘limi

Umumiy tavsifi. Tarqalishi va ekologiyasi. Sporofitining morfologik tavsifi. Makrofillilik, sporangiy va uning rivojlanishi. Soruslari, sinangiyları. Teng va har xil sporali o'simliklar. Qazilma qırqulloqlar (kladoksilon, stavropterus, va boshk.) Va ularning tuzilishi

Paprotniktoifalarning ujovniksimonlar, marattiyasimonlar, polipodiumsimonlar, polipodiumkabilalar, salviniyakabilar kabi sinf va sinfchalarga bo‘linishi, vakillarining ko‘payishi, yer yuzida tarqalishi, o‘sishi va rivojlanishi, ekologivasi hamda xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

## Qarag‘aytoifa (*Pinophyta*) bo‘limi-

Ochiq urug'lilarning umumiy tavfsisi. Kelib chiqishi. Keng tarqalgan davrlari. Urug'lanish. Urug'ning rivojlanishi va tuzilishi. Qubbalar tuzilishining o'ziga xosligi. Sinflarining qabilalarga bo'linishi. Qarag'aydoshlar oilasi. Umumiy tavfsisi. Geografik tarqalishi o'sishi va rivojlanishi, ekologiyasi, o'ziga xos xususiyatlari, xo'jalikdagi ahamiyati. Sagovnixsimonlar, bennettsimonlar va gentumsimonlar sinfi.

Qizilchanamolar sinfi - Gnetopsida (Chlamydospermatopsida). Qizilchanamolar - ephedrales qabilasi. Araukariyanamolar – araucariales qabilasi.

Araukariyadoshlar oilasi. Kelib chiqishi, turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Qarag'aynamolar qabilasi. Umumiyo tavsisi. Geografik tarqalishi. Muhim turlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Iparisnamoler - cupressales qabilasi. Taksodiumoshlar va archadoshlar oilalarining umumiyo tavsislari. Ularning muhim turkum va turlari, ekologiyasi, biosferadagi va xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

Tissnamolar - taxaseae qabilasi. Uning tavsisi. Tarqalishi va kelib chiqishi. Tissdoshlar oilasi va uning o'ziga xos belgilari. Muhim turlari va ularning ahamiyati. Podokarpusnamolar - podocarpales qabilasi. Podokarpusdoshlar oilasi. Ular vakillarining umumiyo tavsisi

#### **Magnoliyatoifa (Magnoliophyta) yoki yopiq urug'li gulli o'simliklar (Angiospermae) bo'limi**

Bo'limning umumiyo tavsisi. Unga kiruvchi oilalar va turkumlar. Ularning tarqalishi va biosferadagi o'rni. O'zbekistonda o'simliklar sistematikasining rivojlanishi va unga katta hissa qo'shgan olimlar: akademik K.Z.Zokirov, M.G.Popov, Ye.P.Korovin, A.I.Vvedenskiy, S.S.Saxobiddinov, V.P.Bochansev, T.Odilov, U.P.Pratov, K.Sh. Tojibaev va boshqa olimlarning yirik ilmiy asarlari.

Bir va ikki urug'pallalilar sinfi. Ularning farq qiluvchi va o'xshashlik belgilari. Umumiyo tavsisi va sifchalarga bo'linishi.

Gulli o'simliklarning sinflar (ajdodlar), sifchalalar (ajdodchalar), qabilalar (tartiblar), oilalar, turkumlar va turlarga bo'linishi haqidagi tushunchalar.

#### **Ikki urug'pallali o'simliklar sinfi - Magnoliopsida (Dicotyledoneae)**

Ikki urug'pallali o'simliklar sinfi - magnoliopsida (dicotyledoneae). Ularning umumiyo tavsisi va sifchalarga bo'linishi. Magnoliyakibilalar sifchasi. Magnoliyanamolar qabilasi. Umumiyo tavsisi va evolyusiyasining asosiy yo'nalishlari. Venteradoshlar, magnoliyadoshlar oilalar.

#### **Ikki urug'pallali o'simliklar sinfi — Magnoliopsida (Dicotyledoneae)**

Ularning umumiyo tavsisi va sifchalarga (ayiktovonkabilalar, chinmigulkabilalar, chinorkabilalar), bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Ular evolyusiyasining asosiy yunalishlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqligi. Biosfera va inson faoliyatida tutgan o'rni.

#### **Ikki urug'pallali o'simliklar sinfi - Magnoliopsida (Dicotyledoneae)**

Ularning umumiyo tavsisi va sifchalarga (Dilleniayakibilalar, Ra'nokabilalar) bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Ular evolyusiyasining asosiy yunalishlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqdigi. Biosfera va inson faoliyatida tutgan o'rni.

#### **Yalpizkabilalar va Qoqikabilalar sifchalari**

Ularning umumiyo tavsisi va sifchalarga (Yalpizkabilalar, Qoqikabilalar) bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Ular evolyusiyasining asosiy yunalishlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqligi. Biosfera va inson faoliyatida tutgan o'rni.

#### **Bir urug'pallali o'simliklar sinfi**

Bir urug'pallali o'simliklar sinfi. Ikki urug'pallali o'simliklardan farqi va ular bilan o'zaro bog'liqligi. Keng tarqalgan oilalari, asosiy vakillari, ularning tuzilishi, ahamiyati. *Lolanamolar qabilasi*. Loladoshlar, piyozdoshlar, chuchmomadoshlar va gulsafsardoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.

#### **O'simliklarning hayotiy shakllari**

Hayotiy shakllar bo'yicha K.Raunkier va I.G.Serebryakov klassifikatsiyalari. Ularning bir-biridan farqli jihatlari.

#### **O'simlik jamoasi (fitotsenoz)**

Ekologik sistema, biogeotsenoz va fitotsenoz to'g'risida tushuncha. O'simlik jamoalarining tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar. Ekotop. Ekosistemalardagi geterotrof komponentlarning o'simliklar o'ttasidagi o'zaro munosabatlarga ta'siri. Raqobat (tur ichida va turlararo). O'simlik jamoalari. O'simlik jamoasi (fitotsenoz) ning belgilari. Fitotsenozning shakllanishi. Fitotsenozning tuzilishi. O'simliklarning tarqalish areallari. Transabiotik va transbiotik o'zaro munosabatlari. Assotsiatsiya va formatsiyalarning tuzilishi

#### **Tayanch doktorantura (PhD) ga kiruvchilar uchun sinov imtihonining javoblarini baholash mezonlari**

Ball	Bilim darajasi
1	2
90-100 (5 baho)	Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, savollar mohiyatini to'liq tushungan, ilmiy yondoshgan, misollar asosida tushuntirib bersa, keltirayotgan javoblarini amaliyotda qo'llab bilsa, savollar bo'yicha xulosalar chiqarib, o'simliklar dunyosi bo'yicha keng tasavvurga ega bo'lsa va o'z fikrlari asosida tavsiyalar ishlab chiqib bilsa
70-89 (4 baho)	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa
60-69 (3 baho)	Javobida fan bo'yicha savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-59 (2 baho)	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa

### Foydalaniladigap adabiyotlar ro'yxati

1. Rudall P. Anatomy of flowering plants (an introduction to structure and development) third edition. Cambridge. 2007. P.
2. Matkarimova A.A., Maxkamov T.X., Maxmudova M.M., Azizov X.Ya., Vaisova G.B. Botanika. - Toshkent: "fan va texnologiya", 2019. 298 b.
3. Mustafaev S.M. Botanika. Toshkent. «Uzbekiston».2002. 470 s.
- 4.Ikromov M.I., Normurodov X.N., Yuldashev A.S., Botanika T. «O'zbekiston» 2002. 322 s.
5. Hasanov B.A. Mikologiya, toshkent, 2019. B. 503
6. Ibadov K.I., Samigjanova D.A. Dala amaliy mashg'ulotlari uchun algologik va mikologik namunalarning aniklagichi. Toshkent, 2012.
7. Xudoikulov S.M., Nazarenko L.I. O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent, 1984.
8. Jukovskiy P.M. Botanika. - M., 1982. - 667 s.
9. Pratov U.P., Odilov T.O. O'zbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va uzbekcha nomlari. - Toshkent, 1995. - 396.
10. Pratov U., Jumaev K. Yuksak o'simliklar sistematikasi. - Tashkent, 2003. - 144 b.
11. Taxtadjyan A.L. Sistema magnoliofitov. - D., 1987. - 439 s.
12. Flora Uzbekistana. 1-6 t. - Izd-Vo «Fan», Tashkent, 1941-1962.
13. Opredelitel rasteniy sredney Azii. 1-10 t. - Izd-Vo «Fan», Tashkent, 1968-1993.
14. Hamidov A., Nabiev M., Odilov T. Uzbekistan o'simliklari aniklagichi. Toshkent, 1987.
15. Xamdamov I. Botanika asoslari. Toshkent. «Mehnat», 1990. 319 b.
16. Jizn rasteniy. M., «Prosvetlenie», t.5, 4.1-2. - 1976-1978.
17. Velikanov L.I. Tuban o'simliklar. Moskva, MGU, Toshkent 1995. -375s.

### Axborot manbaalari

- [www.gbif.org](http://www.gbif.org) (global biodiversity information facility)
- [www.mappinglife.org](http://www.mappinglife.org) (map of life)
- [www.plantlife.org.uk](http://www.plantlife.org.uk) (plantlife: important plants areas)
- [www.flora.uz](http://www.flora.uz)
- [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- [www.naukaran.ru](http://www.naukaran.ru)
- [www.rusplant.ru](http://www.rusplant.ru)

Kafedra mudiri:



N.E.Rashidov